



NAVOIY VILOYAT
HOKIMLIGI



ALISHER
NAVOIY
XALQARO JAMOAT FONDI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT HOKIMLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI XALQARO JAMOAT FONDI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**



**"ALISHER NAVOIY ILMIY-ADABIY MEROSINING UMUMBASHARIYAT
MA'NAVIY VA MA'RIFIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI"**

mavzusidagi V xalqaro ilmiy konferensiya

M A T E R I A L L A R I



**"THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S SCIENTIFIC AND LITERARY
HERITAGE IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT
OF HUMANITY"**

M A T E R I A L S

of the V international scientific conference on the theme

I-II

SHU'BA

Navoiy shahri, 2025-yil, 17-18-oktyabr





UO'K: 821.512.133.09-1(092)(08)

KBK: 83.3(50')

A 49

V XALQARO ILMIY KONFERENSIYANING TASHKILY QO'MITASI

N.Tursunov	Navoiy viloyat hokimi
K.Sharipov	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Q.Sanaqulov	NKMK bosh direktori
B.Abdusalimov	O'zR FA vitse-prezidenti
N.Mahmudov	O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori
Sh.Sirojiddinov	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori
O.Davlatov	Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi direktori
M.Kalonov	Navoiy davlat universiteti rektori
J.Xodjayev	Navoiy viloyat hokimi o'rinbosari
M.Asadov	O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o'rinbosari
S.Xo'jayev	NavDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

To'plovchi:

Zarif QUVONOV

TAHRIR HAY'ATI:

Bahrom ABDUHALIMOV (O'zbekiston), Abdurahmon GO'ZAL (Turkiya), Shuhrat SIROJIDDINOV (O'zbekiston), Nizomiddin MAHMUDOV (O'zbekiston), Muhiddin KALONOV (O'zbekiston), Jabbor ESHONQULOV (O'zbekiston), Muslihiddin MUHIDDINOV (O'zbekiston), Gulchehra RIXSIYEVA (O'zbekiston), Badriddin MAQSUDOV (Tojikiston), Nurboy JABBOROV (O'zbekiston), Vohid TURK (Turkiya), Ahmet AKALIN (Eron), Ali Kumail QAZALBASH (Pokiston), Ibrohim XUDOYOR (Eron), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Boqijon TO'XLIYEV (O'zbekiston), Olim DAVLATOV (O'zbekiston), Yashar QOSIM (Ozarbayjon), Maqsud ASADOV (O'zbekiston) Abdulxamid XOLMURODOV (O'zbekiston), Botir ZARIPOV (O'zbekiston)

Alisher Navoiyning bezavol ijodiy merosi misolida adabiyotimiz, madaniyatimiz va milliy qadriyatlarimizni atroflicha o'rganish hamda keng ommalashtirish muhim ahamiyatga molikdir. An'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plamidan o'rin olgan maqolalar ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qiladi. Umidimiz shuki, mazkur to'plamda bayon etilgan fikr-qarashlar navoiyshunoslik rivojida alohida o'ringa ega bo'ladi.

ISBN 978-9910-8664-0-1

© "Murravatli-dil press", 2025



NAVOIY LIRIKASIDA RAVIYNING ISHTIROKIGA KO'RA TURLARINING QO'LLANISHI

Orzigul HAMROYEVA,
ToshDO'TAU, filologiya fanlari doktori,
(O'zbekiston)



ANNOTATSIYA

Qofiya she'r strukturasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy unsurlardan biridir. Qofiya she'rda nafaqat shakl, balki mazmuni yetaklashi bilan she'rning poetik qurilishini belgilab beradi. Qofiyadosh so'z tarkibidagi raviy esa qofiya mukammalligini ta'minlovchi asos qofiya harfi bo'lib, shoirlar qofiyadosh so'zdagi raviyning ishtirokiga alohida e'tibor qilganlar. Hatto qofiyaga oid arabiy, forsiy va turkiy tildagi risolalarda raviyning ishtirokiga ko'ra qofiya turlari alohida prinsip asosida tadqiq etilgan. Alisher Navoiy lirikasida ham qofiya va uning tarkibiy tuzilishi shoirning poetik mahorati samarasi o'laroq shakllantirilgan. Maqolada Alisher Navoiy lirikasida raviyning ishtiroki belgilab beruvchi mutlaq va muqayyad qofiya turlarining imkoniyatlari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: qofiya, raviy, qofiya harflari, muqayyad qofiya, mutlaq qofiya, lirika.

ANNOTATION

Rhyme is one of the main elements of importance in the structure of poetry. Rhyme determines the poetic construction of the poem by leading not only the form, but also the content. The raviy in the rhyming word is the basic rhyme letter that ensures the perfection of the rhyme, and poets paid special attention to the participation of the raviy in the rhyming word. Even in Arabic, Persian and Turkish treatises on rhyme, rhyme types have been studied based on a separate principle according to the participation of the



raviy. In the lyrics of Alisher Navoi, rhyme and its structural structure are also formed as a result of the poet's poetic skill. The article examines the possibilities of absolute and specific rhyme types determined by the participation of the raviy in the lyrics of Alisher Navoi.

Keywords: rhyme, raviy, rhyming letters, muqayyad(definite) rhyme, mutlaq(absolute) rhyme, lyrics.

KIRISH

Qofiyashunoslar raviyning mutaharrik va sokin holda kelishiga qarab qofiyaning mutlaq va muqayyad turini farqlaydilar. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, qofiya ilmiga bag'ishlangan risolalarda qofiya mutlaq qofiya va muqayyad qofiya turlari sifatida izohlanmaydi. Qofiyaning bu turi raviy harfi izohida raviyi mutlaq va raviyi muqayyad shaklida beriladi. Navoiy lirikasi qofiyaning bu ikki turi rang-barangligi asosida o'ziga xos poetik qurilishga ega.

ASOSIY QISM

Mutlaq qofiya- raviyi mutlaq. Raviyning mutaharrik va sokin bo'lishi raviyi mutlaq va raviyi muqayyad qofiya turini belgilab beradi. Agar raviy mutaharrik bo'lsa, raviyi mutlaq deyiladi. Raviydan keyin keluvchi qofiya harf va harakatlari raviyning mutlaq yoki muqayyad shaklda bo'lishini belgilab beradi. Ma'lumki, rafiyan keyin keluvchi qofiyalari to'rtta bo'lib, ularning joylashuvi qat'iy shaklda belgilab qo'yilgan: ***vasl+xuruj+mazid+noyira***.

Navoiy ijodida mutlaq qofiyaning bir necha turlari uchraydi va ularning har biri shoirning badiiy maqsadini ifoda etish uchun muhim vazifalarni bajaradi.

Vaslli mutlaq qofiya

Qo'ymayin olam ahlida biyme.

Fath etib bir dam ichra iqlime.

Baytdagi biyme, iqlime so'zlaridagi m undoshi raviy, e unlisi esa vasl harfi bo'lib, demakki, raviydan keyin qofiya harfi raviy ishtirok etgan, bunday qofiya vaslli mutlaq qofiya sifatida keltiriladi.

Qaysi birning ne bo'lsa taqdir*i*.

Yeyilib olam ichra ta'siri*i*.

Yoki

Ham magar mo'ri ranjparvard*i*,



Topib andoq sipohdin gardi,
Vasl va xurujli mutlaq qofiya
Pastlikdin balandliq topqay,
Zo'rdin bahramandliq topqay.

Navoiy ijodida mutlaq qofiyaning bu turi ko'p uchraydi. Ushbu baytda keltirilgan *balandliq*, *bahramandliq* qofiyadosh so'zlarida d undoshi raviy, l undoshi vasl, q undoshi xuruj sanaladi.

Nazmi avroqi pardai jondin,
Ham siyohisi obi hayvondin.

Yoki

Istamon ko'nglumni aylarda xayol ul mohni
Kim, taxayyul birla sayr aylar, netar hamrohni.

Vasl, xuruj, mazidli mutlaq qofiya
Ne diloromeki, so'rg'ay dardi holimdin gahe,
Ne dil afgoreki, qayg'urg'ay malolimdin gahe.

Holimdin - malolimdin qofiyadosh so'zlaridagi l undoshi raviy, m undoshi vasl, d undoshi xuruj, n undoshi mazid sanaladi. Shuning uchun ham bu qofiya turi vasl, xuruj, mazidli mutlaq qofiya deb yuritiladi.

Ko'rubon o'z haqir-u pastlig'in,
Qora tufroqqa hamnishastlig'in.

Yoki

Komi la'lingning xayolidin ko'ngul qozg'onmadi,
Tushta su ichkan bila lab tashna hargiz qonmadi.
Vasl, xuruj, mazid va noyirali mutlaq qofiya.

Bu qofiya turida qofiyaning raviydan keyin keluvchi barcha harflari ishtirok etadi.

Gul ne bo'lg'aykim, yuzung hajrida *ko'rgaymen* ani,
Solsalar kulbamg'a, xas yanglig' *supurgaymen* ani.

Ko'rgaymen – supurgaymen qofiyadosh so'zlari tarkibidagi r undoshi raviy, g undoshi – vasl, yo undoshi – xuruj, m undoshi – mazid, n undoshi – noyiradir.

Obi hayvong'a hamnishonlig'ini.
Fahm etib ko'rgan el ravonlig'ini.

Yoki

Buki, holimni sharh qilmasmen,
Ayb emas, chun o'zumni bilmasma.
Muassasi mutlaq qofiya



Shah boshig'a sochay **javohirini**,
Zohir aylay nihon-u **zohirini**.

Javohirini – *zohirini* qofiyadosh so'zlari tarkibidagi *r* undoshi raviy sanalsa, raviydan oldingi, asosda joylashgan *h* undoshi – *daxil*, *o* unlisi esa ta'sis sanaladi. Ta'sis harfi ishtirok etgan qofiya muassas qofiya sifatida keltiriladi. E'tibor berilsa, raviydan keyin qofiyaning vasl va xuruj harflari ishtirok etgan, demakki, bunday qofiya muassasi mutlaq qofiya sanaladi.

	ta'sis	daxil	ishbo'	Vasl	majro	xuruj	noyira
<i>Jav</i>	<i>o</i>	<i>h</i>	<i>i</i>	<i>r</i>	<i>i</i>	<i>n</i>	<i>i</i>
<i>Z</i>	<i>o</i>	<i>h</i>	<i>i</i>	<i>r</i>	<i>i</i>	<i>n</i>	<i>i</i>

Muqayyadi mutlaq qofiya.

Ey xudovandlar **xudovandi**,

Yo'q xudoliqda kimsa **monandi**.

Navoiy baytlari orasida qofiya harflarining ishtirokiga ko'ra turlaridan biri muqayyad qofiya qo'llangan baytlar salmoqli hajmga ega bo'lib, shoir qator undoshli so'zlardan qofiya sifatida unumli foydalangan. Yuqoridagi baytda ham *xudovand* – *monand* so'zlaridagi *d* undoshi – raviy, undan oldingi *n* undoshi – qayd sanaladi. Qayd harfi ishtirokidagi qofiya muqayyad qofiya sifatida baholanadi. Qofiya tarkibidagi raviy vaslli bo'lgani bois bu ikki so'z muqayyadi mutlaq qofiya turini hosil qilgan.

Ko'rubon o'z haqiru **pastlig'in**,

Qora tufroqqa **hamnishastlig'in**.

Yoki

Oyu kun yo'q agarchi **monanding**,

Ikki sa'd axtar ikki **farzanding**.

Murdafi mutlaq qofiya.

a) Ridfi asliy ishtirokidagi murdafi mutlaq qofiya.

Qofiyashunoslikda ridfning ikki turi farqlanadi. Biri ridfi asliy, ikkinchisi ridfi zoyid. Ridf "orqasida turish" degan ma'noni anglatadi. Ridfi asliy raviydan oldingi cho'ziq unli bo'lib, o, u, i unilari ridf sifatida kela oladi. Bu uch unlining qayddan farqi shundaki, "alif", "vov" va "yo" harflari madd bilan birga keladi. Navoiy ijodida ridfi asliy ishtirokidagi murdafi mutlaq qofiyani etarlicha uchratish mumkin.

Ulcha ul qildi **komronlig'idin**,



Shohlar ichra **pahlavonlig'idin.**

	<i>Ridf</i>	<i>Raviy</i>	<i>Vasl</i>	<i>Majro</i>	<i>Xuruj</i>	<i>Nafoz</i>	<i>Mazid</i>	<i>Nafoz</i>	<i>Noyira</i>
<i>Komr</i>	<i>o</i>	<i>n</i>	<i>l</i>	<i>i</i>	<i>g'</i>	<i>i</i>	<i>d</i>	<i>i</i>	<i>n</i>
<i>pahlav</i>	<i>o</i>	<i>n</i>	<i>l</i>	<i>i</i>	<i>g'</i>	<i>i</i>	<i>d</i>	<i>i</i>	<i>n</i>

Ey Navoiy, ne bo'lsa **guftoring.**

Ayla bunyodkim, xudo yoring.

Yoki

Ham anga aytibon **nishonimni,**

Ham desam nuktai **nihonimni.**

Mujarradi mutlaq qofiya.

Mujarrad qofiya raviydan oldingi qofiya harakatlarining kelishiga asoslanadi. Raviydan oldingi tavljhning kelishi mujarrad qofiya turini hosil qiladi. Bunda daxilning harakati ishbo' bilan tavljhni farqlash muhim ahamiyatga ega. Ishbo' daxilning harakati bo'lib, daxil ta'sis harfi bilan yonma-yon holatda yuradi: *mohir* – *Tohir* kabi. Mujarrad qofiya turida esa daxil va ta'sis ishtirok etmaydi: *shakar* – *zahar* so'zlari kabi. Qofiyashunoslar mujarrad qofiyaning ikki turini farqlaydilar.

Tavljhli mujarrad qofiya

Raviy unli bilan tugovchi mujarrad qofiya.

Navoiy ijodida mujarrad qofiyaning har ikki shakli ham uchraydi.

Jismim o'ldi zaif **mehnatdin,**

Jonima ettim ul **mashaqqatdin.**

Ko'rinib turibdiki, baytdagi mehnatdin – mashaqqatdin qofiyadosh so'zlari tarkibida tavljh ishtirok etgan, raviydan keyingi qofiya harakatlari-ning ishtiroki esa mutlaq qofiya qonuniyatlariga mos.

Anga farzand bir **parivashdur,**

Ki, pari husnidin **mushavvashdur.**

Navoiy raviy harfi unli bilan tugovchi qofiyali so'zlarni engil ohangli va mushohadali mazmundagi baytlar uchun tanlab olgan. Biroq shoir ijodida raviy harfi unli bilan tugovchi mutlaq qofiya turining salmog'i ko'p emas. Navoiy mujarrad qofiyaning muqayyad turini tuyg'u va ifodani etkazib beruvchi asosiy qofiya sifatida ishlatgan.

Menga emdi sarv ila gul **muddaosi** qolmamish,

Sarv bo'yluq guljabinlarning **havosi** qolmamish.



Uyla buzmish mehnatu g'am xayli ko'nglum kishvarin
Kim, nashot anda sig'ing'uncha **fazosi** qolmamish.

2. Raviyi muqayyad – muqayyad qofiya.

Arab va ajam shoirlari orqasida raviyi muqayyad raviyi mutlaqqa nisbatan kamroq qo'llangan. Raviyning muqayyad shaklida qofiyadosh so'z raviyi bilan tugallanadi, ya'ni raviydan keyin qofiya harf va harakatlari ishtirok etmaydi. Turkiy adabiyotda esa qofiyaning muqayyad turidan unumli foydalanilgan. Xususan Navoiy ijodida muqayyad qofiyaning bir necha turlari qo'llangan.:

Muassasi muqayyad qofiya

Borcha ishdin xabar topib **soyil**,

Bo'ldi tufrog'in o'pgali **moyil**.

Yoki

Yozmish erdi hakimi **daryodil**,

Aylamak zol sehrini **botil**.

Yoki

Bu nag'ma erdimu yo'q ersa **ofat**, ey hofiz

Ki, bazm ahlig'a solding **qiyomat**, ey hofiz.

Murdafi muqayyad qofiya

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Navoiy ijodida murdafi muqayyad qofiya qofiya turlari orasida eng ko'p qo'llangan qofiya turi sanaladi.

Yor chun istarki, bo'lg'aymen mudom andin **yiroq**,

Ul jihatdin barcha vasl istar, meni mahzun **firoq**.

Yoki

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi **shamshod**,

Bulbul kebi hajringda ishim nolavu **faryod**

Ridfi zoyidli murdafi muqayyad qofiya:

Bog'ladi barhaman eshikni **chust**,

Hisni Xaybar eshigi yanglig' **rust**.

Yoki

Bu ishdur turfakim egriyu gar **rost**,

Qo'ya olmas qadam bo'lmay sanga **xost**

Muqayyadi muqayyad qofiya.

Butub gulbunlaridin g'unchai **dard**,

Chiqib ul g'unchalardin otashin **vard**.

Navoiy dostonlari tarkibida keltirilgan muqayyadi muqayyad qofiya turi ishonch bilan aytilgan fikr va o'xshatishlar ifodasida keltirilgan bo'lib,



qator undoshli soʻzlarning yonma-yon kelishi, soʻzning mazmuni, talaffuz imkoniyatlari shu mazmunga xizmat qilgan.

Muhammad «kofu», «nun» gʻa **qurratul-ayn**,

Tufayli kavn oʻlub, yoʻq-yoʻqki, **kavnayn**.

Yoki

Gar ilgi xoma sori qilmayin **mayl**,

Qoʻyub xattigʻa boshin yuz tuman **xayl**.

Mujarradi muqayyad qofiya.

Dema noleki sihat tormayin **hech**,

Tushubtur rishtai jonigʻa yuz **rech**.

Yoki

Ilik tigʻinki tortib **fil-ishora**,

Qamar qolqonin aylab **ikki rora**.

Yoki

Bu xatdan tosh angakim roʻya **etmak**,

Yugurmak birla yoʻq manzilgʻa **etmak**.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy ijodida raviydan keyin keluvchi qofiya harflarining ishtiroki oʻziga xos shakl bilan birga maʼnoni taʼkidlab aytish uchun imkoniyat vazifasini bajargan. Shoir raviyning mutaharririk va sokin holatda kelishidan badiiy maqsadini etkazuvchi vosita sifatida foydalangan. Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, Navoiy ijodida mutlaq va muqayyyad qofiya turlaridan birdek unumli foydalanilgan. Shoir gʻazaliyotida raviydan keyingi harflarning toʻrtalasi (vasl, xuruj, mazid, noyira) ham ishtirok etgan qofiyali soʻzlardan foydalanish koʻproq. Doston zamiridagi masnaviylar esa oʻzida maʼlum syujetni tashigani bois qofiyaning muqayyad shaklining qoʻllanishi ustuvorlik qiladi.



Adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT.10 jildlik. 1-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
2. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
3. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. TAT. 10 jildlik. 2-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
4. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. TAT. 10 jildlik. 4-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
5. Abdurahmon Jomiy. Risolai qofiyai Mulla Jomiy. Kalkutta, 1867.
6. Atulloh Husayniy. Risolai qofiya. Ba kushish Fozil Abboszoda, Doktor Rajab Tavhidyon. -Tehron. H.1393. -71 s.
7. Вохид Табризи. Джем и мухтасар. Критический текст, пер. И примеч. А. Е Бертелса. – М.: Наука, 1959. -С.158.
8. Hamroyeva O. Temuriylar davridagi poetikaga doir risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili. Monografiya.-T: BOOKPRINT, 2022. -B. 255.
9. Hamroyeva O. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. -T: BOOKPRINT, 2022. -B. 155.
10. Hamroyeva O. Navoiy lirikasining qofiya tizimi. O'quv qo'llanma. – T: BOOKPRINT, 2024. -B. 167.
11. Мусулманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв. – М.: Наука, 1989. - С. 95-116.
12. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog'a. - T.: Xazina, 1996.
13. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo'rayev) -T.: MUMTOZ SO'Z. 2016. – 244 s.



MUNDARIJA

Maqsud ASADOV Adabiyot ahlining abadiy sarxayli.....3

I SHU'BA

ALISHER NAVOIY ILMYI MEROSI VA JAHON ILM-FANI RIVOJI

Muhiddin KALONOV (O'zbekiston) – Komillar xaylining sohibqironi..	10
Abdurrahman GÜZEL, Ali Fuat BILKAN (Turkiya) – Ali Şir Nevâyî Yûsuf u Züleyha yazdi mi?.....	14
Muslihiddin MUHIDDINOV (O'zbekiston) – Navoiy va salaflari ijodida inson hilqati masalasi.....	26
اهمیت و جایگاه علیشیر نوایی در تذکره نویسی ادبی فارسی در ماوراءالنہ	
Ibrahim XUDOYAR (Eron) – Movarounnahr forsiy adabiy tazkirachiligida Alisher Navoiyning o' rni va ahamiyati.....	37
Almaz ÜLVİ BİNNATOVA (Ozarbayjon) – Maqsud Şeyxzadə və onun “Qəzəl mülkünün sultani” kitabının təhlili.....	50
Hamidulla BOLTABOYEV (O'zbekiston) – Mirzo Ulug'bek davri adiblari Navoiy talqinlarida.....	59
Boqijon TO'XLIYEV (O'zbekiston) – “Muhokamat ul-lug'atayn” – adabiyot nazariyasining nodir manbasi.....	69
Nurboy JABBOROV (O'zbekiston) – “Hayrat ul-abror” dostonining irfoniy-estetik mohiyatiga doir mulohazalar.....	80
Vahit TÜRK (Turkiya) – Ali Şir Nevâyî'de Ölüm kavrami ve Ölümle ilgili kalip Sözler.....	93
Maqsud ASADOV (O'zbekiston) – Alisher Navoiy asarlarida ijod va ijod ahli talqini.....	104
Kemal YAVUZ ATAMAN (Turkiya) – Ebû Hüseyin en-Nûrî'den Ali Şir Nevâyî'ye Aşkullah.....	111
Jabbor ESHONQULOV (O'zbekiston) – Alisher Navoiy jasorati.....	124
Muhsin MACIT (Turkiya) – Osmanli sahasi şiir mecmualarindaki Nevâyî mahlasli gazeller üzerine bir değerlendirme.....	136
Ibodulla MIRZAYEV (O'zbekiston) – E.Bertelsning “Navoiy va Jomiy” monografiyasi haqida.....	146
Nafas SHODMONOV (O'zbekiston) – Aziziddin Nasafiy merosining Alisher Navoiy fenomenologiyasidagi o' r niga doir.....	149
Aftondil ERKINOV (O'zbekiston) – Zanjirband sher izidan (ayrim mulohazalar).....	157



Habibulla JO'RAYEV (O'zbekiston) – Adabiy maslakdoshlik: Navoiy va Jomiy.....	166
Dilorom SALOHIIY (O'zbekiston) – Alisher Navoiy na'tlarida “vasf” va “iltijo” tasvir usullari.....	173
Yuu KURIBAYASHI (Yaponiya) – Research on Alisher Navoi in Japan and Text Visualization.....	180
Dilaver GÜRER (Turkiya) – Mahbubu'l-kulub Adli eserinde Ali Şir Nevai'nin tasavvufi ahlak anlayışı.....	191
Tohir XO'JAYEV (O'zbekiston) – Navoiyning she'riyatdagi badiiy mahoratiga doir.....	207
Usmon QOBILOV (O'zbekiston) – Alisher Navoiy g'azaliyotida “xol-u xat va xoldor” timsollari ta'rif.....	212
Oysara MADALIYEVA (O'zbekiston) – Alisher Navoiy “Badoyi' ul-bido-ya”sining Parij nusxasi xususida.....	219
Orzigul HAMROYEVA (O'zbekiston) – Navoiy lirikasida raviyning ishtirokiga ko'ra turlarining qo'llanishi.....	245
Shahnoza RAHMONOVA (O'zbekiston) – “Nasoyim ul-muhabbat”da ma'naviy kamolot talqini.....	253
Akrom MALIKOV (O'zbekiston) – Rindlikdan faqr-u fano sari: Sayyid Hasan Ardasher Alisher Navoiy nigohida.....	258
Elnara GULALIYEVA (Ozarbayjon) – Alisher Navoi's Scientific Heritage and the Development of World Science.....	285

II SHU'BA

ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSI VA UMUMBASHARIYAT MA'NAVIY-MA'RIFIY TARAQQIYOTI

Sultonmurod OLIM (O'zbekiston) – Alisher Navoiy nazdida Abdulloh Ansoriy.....	290
Qodirjon ERGASHEV (O'zbekiston) – Renessans adabiyotida janrlar taraqqiyoti va Alisher Navoiy ijodi.....	303
Nusratullo JUMAXO'JA (O'zbekiston) – Navoiy nazmida o'zlikni anglash hikmati.....	314
Badia MUXITDINOVA (O'zbekiston) – Jomiy va Navoiy asarlarida axloqiy-ruhiy qadriyatlarining badiiy ifodasi.....	321
Shoira AXMEDOVA, Munisjon HAKIMOV (O'zbekiston) – Akademik Naim Karimovning bir tadqiqoti haqida.....	332
Gulbahor ASHUROVA (O'zbekiston) – Alisher Navoiy – estetik ideal obyekti sifatida.....	338



Ziyoda G'AFFOROVA (O'zbekiston) – Navoiyning hamd va na't ruboiylari poetikasi.....	351
Yo'ldosh RAHMATOV (O'zbekiston) – Alisher Navoiy hikmatlari va xalq maqollarining o'zaro munosabati.....	360
Abdulhamid XOLMURODOV (O'zbekiston) – Navoiy merosi: tarbiya manbayi va bugungi kun.....	371
Dilrabo QUVVATOVA (O'zbekiston) – Alisher Navoiy asarlarida ma'rifat talqini.....	375
Damin TO'RAYEV (O'zbekiston) – Komil inson va insonparvarlik tarannumi.....	380
Haqiqat BUNYATOVA (Ozarbayjon) – Zamondan oshgan she'riyat: Alisher Navoiy va tazkira sahifalarida abadiyat.....	386
Alisher RAZZOQOV (O'zbekiston) – Navoiy asarlarida samarqandlik valiylik zikri.....	396
Nargiza SHOALIYEVA (O'zbekiston) – Navoiy ijodida ishq tushunchasining badiiy talqini.....	403
Nigora MURODOVA (O'zbekiston) – Insof-u adolat-u saloh etsa shior.....	413
Shoxsanam DAVRONOVA (O'zbekiston) – “Samarqand sayqali” drama-sida Alisher Navoiy obrazi.....	417
Zuhra MAMADALIYEVA (O'zbekiston) – Navoiy ijodida ramz va majozning o'rne va xususiyatlari.....	426
Baxshilla ASHUROV (O'zbekiston) – Navoiy insonparvar shoir sifatida.....	435
Xolbibi QURBONOVA (O'zbekiston) – Navoiyni bilmoq saodati.....	439
Umida OTAYAROVA (O'zbekiston) – Alisher Navoiy adabiy merosining xalq ma'naviy hayotida tutgan o'rne.....	443
Xosiyat BEKMIRZAYEVA (Qirg'iz Respublikasi) – Badiiy tafakkur chechaklari: Alisher Navoiy va salaf-lari ijodi.....	452
Surayyo MUQIMOVA (O'zbekiston) – Ism, ma'no va taqdir.....	457
Mahbuba MAJIDOVA (O'zbekiston) – Navoiylirikasida oshiq – ma'shuqa – raqib uchligida ayol obrazining o'rne.....	463
Sherxon QORAYEV (O'zbekiston) – Amir Alisher Navoiyning suhbat-doshlari.....	470
Tozagul DO'SANOVA (O'zbekiston) – Navoiy asarlarida Abdurahmon Jomiy timsoli.....	483
Faxriddin RAJABOV (O'zbekiston) – “Navoiyni kuylaymiz” to'plami haqida.....	494



Sarvinoz AXMADQULOVA Navoiy ijodida ayol obrazining badiiy talqini (Mihinbonu obrazi misolida).....	501
Sevinch OMONOVA (O'zbekiston) – Navoiy “Xamsa”sining ma’naviy-ma’rifiy yog’dusi (Omon Matjonning “Ming bir yog’du” dostoni misolida).....	506
Sevinch SA'DULLAYEVA (O'zbekiston) – Abdulla Oripov she’riyatida Alisher Navoiy an’analari.....	514



“Muruvvatli-dil press”

☎ +99897 701-01-83

Ilmiy nashr

**“ALISHER NAVOIY ILMIY-ADABIY MEROSINING UMUMBASHARIYAT
MA’NAVIY VA MA’RIFIY TARAQQIYOTIDAGI O’RNI”**

mavzusidagi V xalqaro ilmiy konferensiya

M A T E R I A L L A R I



**“THE ROLE OF ALISHER NAVOI'S SCIENTIFIC AND LITERARY
HERITAGE IN THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL DEVELOPMENT
OF HUMANITY”**

M A T E R I A L S

of the V international scientific conference on the theme

I-II SHO'BA

Muharrir: Olimjon Jumaboyev

Musahhih: Abror Pirnazarov

Sahifalovchi: Abdurasul Abduganiyev

Tasdiqnoma: 1034269

Bosishga 07.10.2025-yil ruxsat etilgan.

Bichimi 70x100 ¹/₁₆ Ofset bosma.

“Cambria” garniturası. Shartli bosma tabog'i. 33.

Adadi 500 dona. Buyurtma № 6-25

“Muruvvatli-dil press” MCHJda chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Qatortol ko'chasi, 21-uy.